

Samarqanddan Olmaotaga yangi qatnovlar

2021 8 Iyun

O'zbekistonda turizm industriyasini rivojlantirish, sohani barqaror taraqqiy ettirish uchun zarur me'yoriy-huquqiy bazani ishlab chiqish va takomillashtirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

"Uzbekistan Airways" AJ 2021-yil 8-iyundan boshlab ilk marotaba Samarqand-Oлмаota-Samarqand yangi yo'nalishi bo'yicha muntazam qatnovlarni amalga oshiradi. Aviaqatnovlar haftasiga ikki marotaba - seshanba va shanba kunlari bajariladi.

Parvozning umumiy davomiyligi 1 soat 50 daqiqani tashkil etadi. Yo'lovchilar Samarqand-Oлмаota yo'nalishi bo'yicha aviachiptalarni 1 095 955 so'mdan xarid qilib olishlari mumkin. Samarqand-Oлмаota-Samarqand yo'nalishi bo'yicha aviachipta narxi esa 1 913 025 so'mdan boshlanadi.

Ta'kidlash joizki, Samarqand-Oлмаota-Samarqand yo'nalishida yangi qatnovning ochilishi kelgusida yurtimizda turizmni yanada rivojlantirishga munosib hissa qo'shibgina qolmay, Samarqand xalqaro aeroporti "Uzbekistan Airways" AJ qatnovlari uchun zamonaviy xab sifatida xizmat qilishini ta'minlaydi.